

## **DINIY-MISTIK TABOBATDA SHAKL VA BEZAKLARNING AHAMIYATI**

**Matchanova Sanobar Muxamedjanovna**

*UrDU akademik litseyi tarix va huquq fani o'qituvchisi.*

*Mustaqil izlanuvchi*

[matchanovasanobar@gmail.com](mailto:matchanovasanobar@gmail.com)

*Tel: 93 748 65 34*

<https://orcid.org/0009-0001-3099-8014>

An'anaviy kiyim-kechak, zargarlik buyumlari va uy-ro'zg'or anjomlarida diniy-mistik tabobat funksiyalarining etnografik tahlili ulardagi shakllning ham muhim ahamiyati borligini kўrsatadi. Zotan, tumorlar lokal xususiyatlarga ega bo'lib, bu ularning shakli va bezaklarida namoyon bo'lgan. G.Boroznaning fikricha Xorazm vohasi o'zbeklarining tumorlari orasida tsilindrsimon shakllari ko'proq uchrasa, turkmanlar va qoraqalpoqlar orasida uchburchak tumorlar muhim ahamiyat kasb etgan. Buxoro, Samarqand, Toshkent va Farg'onaning o'zbek va tojiklarida<sup>1</sup> katta hajmdagi uchburchak va to'rt burchakli tumorlar ishlatilgan.

Xiva Ichon qal'a muzey fondida saqlanayotgan 340 ta zargarlik buyumlari orasida 47 tasi tsilindrik tumor bo'lsa, 42 tasi to'rtburchak, 60 tasi uchburchakli, 20 tasi doira, 5tasi besh burchakli, 6 tasi sakkizburchakli, 40ta uzuk tumorlar, 65 ta bilakuzuk tumor, 5ta romb, 80 tasi aralash, ya'ni uchburchak, to'rtburchak, chikalit, romb, doira, qush va o'simlik, xamda ipdan, turli xil toshlar aralash yasalgan tumor taqinchoqlarni tashkil etadi.

V-XX asrlarga oid bo'lgan bu taqinchoqlar Xorazmda XIX asr oxiri-XX asr boshlariga kelib kasalliklardan himoyalaniish va davolanishning murakkab bir sistemasi yaratilganligini kўrsatadi.

Дуо-сўзлар тўғри тўртбurchak, квадрат, учбurchak ва цилиндр каби турли хил геометрик шакллар ичига ёзилган. Voha aholisining tibbiy-marosimiy hayotida muhim o'rin titgan uchburchak shakli Xorazmning bronza davriga oid sopol idishlarida ko'proq uchraydi. A.V.Vinogradov<sup>2</sup> tadqiqotlariga ko'ra kaltaminorliklarning sopol idishlar shakllari va naqshlari (geometrik учбurchak ва to'rtburchak) ularni qo'shni Sharqiy Kaspiy bo'yi (Jebel, Dam-dam-chashma 1,2), Janubiy Turkmaniston Kopettog' etagi Joytun madaniyati, shuningdek, Old Osiyo, Eron, Iroq hududlari jamoalari bilan madaniy aloqalari bo'lganligini ko'rsatadi.

<sup>1</sup> Содиқова Н. Ўзбек миллий кийимлари.-Т.Шарқ.2003.-Б.8-41

<sup>2</sup> Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма // МХЭ, 1968, вып. 8.; Виноградов А.В., Мамедов Э.Д. Первобытный Лявлякан. Этапы древнейшего заселения и освоения Внутренних Кызылкумов, МХЭ, 1975, вып. 10

Bunday geometric tasvirlarni Bozorqal'a va Qo'yqirilganqal'a sopol idishlarida ham ko'rish mumkin<sup>3</sup>.

Chilpiqqal'a materiallari ham diniy-мистик ramzlardan бири бўлган геометрик шакллари ёритишда muhim manba bo'la oldi. Qal'a ehrom ibodatxonasining devorlaridagi ramziy belgilar aholining sirli kuchlarga ishonganidan dalolat beradi<sup>4</sup>. Ko'pgina tadqiqotchilar, masalan, O.N. Bader va B.Groznolar<sup>5</sup> Chilpiqqal'adagi ramzlarga o'xshagan to'rtburchak, panjarali to'rtburchak yulduzchali to'rtburchak va uchburchak belgilarini murakkab piktografik yozuvlar tarkibiga kiritishadi. Tolstov esa Chilpiqqal'aning zardushtiyar dahmasi ekanligini hisobga olib bu belgilarni dafn marosimlari va himoyachi ruhlar bilan muloqot belgilari ekanini taxmin qiladi. Shu jihatdan, u to'rtburchak, panjarali to'rtburchak yulduzchali to'rtburchak va uchburchak belgilarini protoxorazm yozuvidan protohind yozuviga, piktografiyadan ideografiyaga o'tish va iyeroglafik yozuvning dastlabki ko'rinishlarini shakllanishi deb qaragan<sup>6</sup>. Chilpiqqal'a minorasi arablar davrida qayta tiklangan bo'lsa, IX-X asrlarda ya'ni Xorazmning gullagan vaqtlarida ta'mirlangan. Bir qator tadqiqotchi olimlarning fikricha, xorazmliklar Chilpiqqal'adan Xorazmshohlar davlatining boshqa qal'alari bilan bir qatorda xabar yetkazish va mudofaa minorasi sifatida foydalanishgan.

Aytish joizki, IX-XV asrlarda tarakkiy qilgan so'fiylik ta'limotining markazida "maxfiy bilim" tushunchasi alohida o'rin tutgan. "Maxfiy bilim" lar tizimidagi belgi va ramzlar, geometrik shakllardan so'fiylar keng foydalanganlar. Chilpiqqal'aning yaqin davrlargacha folbinlarning sehr amaliyotlarini bajarish maskani bo'lib kelganligini hisobga olsak, bu yerdagi geometrik tasvirlar ularning faoliyati bilan bog'liqligini taxmin qilish mumkin.

Умуман олганда ramzlarda ifodalangan madaniy ma'lumotlarni tadqiq qiliш orqali nafoqat ramzlarning funktsiyalarini, balki ular orqali ёзув бўлмаган jamiyatlardagi marosimlarni ham ўрганиш imkoniyati tuғилади. Masalan, afsunlar ёзилган doira va doira ichidagi krest, uchburchak ёки tўrtburchak shakllarga ёзилган duolarni olish mumkin. Jaхon mifologiyasida doira ichki kenglikning asosiy belgisi бўлиб, u cheksizlik, abadiylik, absolut ёки kamolot demakdir va osmon, kuёsh va oy bilan boғlangan. Krest esa olamning tўrt tарафи va borlikning харакатини англатади. Учбурчак эса қадимги diniy tasavvurlarga asoslangan бўлиб, яратувчи, ақл (рух) va танани билдиради. Квадрат эса Каабанинг синоними сифатида қўлланилган. Бешбурчак

<sup>3</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.; МГУ.1948 – стр.84-86

<sup>4</sup> Бобоев Х., Ҳасанов Х. "Авесто" - маънавиятимиз сарчашмаси. – Т.: "АДОЛАТ", 2001, - Б. 17

<sup>5</sup> Бадер О.Н. Древние изображения на потолках гротов в Приазовье. Материалы и исследование по археологии СССР. Т.2. М. — Л., Наука, 1941. стр. 126; Грозно Б. Протоиндийские письмена и их расшифровка.ВДИ. Номер 2 (11) от 1940 года. стр. 15-34. // <http://vdi.igh.ru/authors/924?locale=ru>

<sup>6</sup> Толстов С.П. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.; МГУ.1948 – стр.75

эса исломнинг 5та асосини англатади. Рамзлар жуда кучли психологик ва ижтимоий таъсирга эга. Масалан, 7 рақами “бахт келтиради, муқаддас”. У сеҳрни очишда муҳим роль ўйнайди. Ёки Аллохни тасвирлаш мумкин эмас, ҳарфларда ва белгиларда ифодалаш мумкин. Шунинг учун мусулмон архитектурасида “Аллох” сўзи тўртта вертикал таёкча билан белгиланади (III).

Xorazm marosim mutaxassislarining faoliyatini o'rganish jarayonida, duo va afsunlar yozishning ikki xil usuli kuzatildi. Birinchi usul – oq qog'ozga Qur'on oyatlari yoziladi va uchburchak shaklida buklanib, matodan futlyar yasaladi. Matoning rangi marosim mutaxassisi tomonidan maxsus aytiladi.

Ikkinchi usul qog'ozga turtburchak, romb, uchburchak, doira, beshburchak, oltiburchak va sakkizburchak, ba'zan to'qqiz burchak, yoki burchaklar jamlanmasi chizilib, uning ichiga sirli harflar va raqamlar rangli usulda yoziladi.

Хоразм давочаларининг ичида учбурчак шаклидагилари кўпрокни ташкил қилади. Биз буни шавкала, маржондўзий, даводўзий, калитбоғларида, зиракларда, кийимларда ва камарларда кўроқ учратамиз. Айниқса, Хоразмлик қорақалпоқ ва туркман туморларида учбурчак шакллари, хусусан шавкалада кетма-кет занжирларда 5 ёки 6 тадан иборатлигини кўрамиз<sup>7</sup>. Шунингдек, Хоразмнинг синсилла<sup>8</sup> кўкрак тақинчоғининг марказий қисми ва иккита уч қисми учбурчак шаклини 6 та занжир билан уланганини кўрамиз. Маросим мутахассисларининг қўлланмаларида учбурчак ичига ёзиладиган бирорта дуо ҳақида учратмадик. Аммо дуо-оятларнинг турли шакллarga ёзилиб учбурчак ҳолатида буклаш тавсия этилаётганини гувоҳи бўлдик. Айниқса, ҳозирги даврда исталган бир дуони ёзиб, учбурчак қилиб бергувчи маросим мутахассислари кўп ва биз уларни болаларнинг дўппиларида, кийимининг орқасида, елкасида, кўкрагида тўғноғич билан қадалганини гувоҳи бўламиз. 3-рақами маросим мутахассислари учун бирқанча маънони англатади (дуоларни 3 марта ўқиш, 3-кун ўқиш, 3 кун ўқиш ва .х.зо). Сўфийлик табобатида у оламнинг 3 та бирлиги “яратувчи- қалб – тана”-субстанция-акциденция ва модда(жавҳар-рух-инсон)дир. Хоразм тақинчоқларида “davodo'ziy”<sup>9</sup> uchburchak shaklida bo'lib, uning markaziy qismiga katta feruza tosh, atroflarida uchburchak yo'nalishi bo'ylab mayda feruza toshlar o'rnatilgan.

Diniy-mistik tabobatda shakl va bezaklar nafaqat estetik ahamiyatga ega bo'lib, balki ularning shifobaxsh va himoyaviy vazifalarini ham ta'minlaydi. Geometrik shakllar, ramziy naqshlar va maxsus bezaklar orqali kasalliklardan himoya qilish, ruhiy barqarorlikni mustahkamlash va zikr yoki duolarning samaradorligini oshirish amalga

<sup>7</sup> Хива Ичон қалъа музей фонди КП 5329/23- қорақалпоқ кўкрак тумори

<sup>8</sup> Хива Ичон қалъа музей фонди КП177/2 инвентарь синсилла.

<sup>9</sup> Xivada “Ichon Qal'a” muzey qo'riqxonasi fondi КП 1138,

oshirilgan. Shu tarzda shakl va bezaklar din, madaniyat va tibbiy amaliyotning murakkab birlashmasini tashkil etadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Содиқова Н. Ўзбек миллий кийимлари.-Т.Шарқ.2003.-Б.8-41
2. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма // МХЭ, 1968, вып. 8.; Виноградов А.В., Мамедов Э.Д. Первобытный Лявлякан. Этапы древнейшего заселения и освоения Внутренних Кызылкумов, МХЭ, 1975, вып. 10
3. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.; МГУ.1948 – стр.84-86
4. Бобоев Ҳ., Ҳасанов Ҳ. “Авесто” - маънавиятимиз сарчашмаси. – Т.: “АДОЛАТ”, 2001, - Б. 17
5. Бадер О.Н. Древние изображения на потолках гротов в Приазовье. Материали и исследование по археологии СССР. Т.2. М. — Л., Наука, 1941. стр. 126
6. Грозно Б. Протоиндийские письма и их расшифровка.ВДИ. Номер 2 (11) от 1940 года. стр. 15-34. // <http://vdi.igh.ru/authors/924?locale=ru>